Tayanch iboralar: kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya, biznesni yuritish, bank, oilaviy tadbirkor, mikrobiznes.

Abstract: In this article, special attention is paid to increasing the economic potential of our country, increasing the income of households and expanding the possibilities of fighting unemployment by supporting small and medium entrepreneurship. Conclusions, recommendations and suggestions, opinions are held regarding the proposed measures to increase the well-being and stability of the national economy, create new jobs and improve the lives of citizens.

Keywords: small business, entrepreneurship, investment, running a business, banking, family entrepreneur, microbusiness.

Yangi texnologiyalarning yetakchi tarmoqlarga faol joriy etilayotganini, ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida ham o'z o'rnini topayotganini ko'rmoqdamiz. Bu ishlab chiqarishni doimiy ravishda kengaytirish va yangi g'oyalarni joriy etishga intilishdan dalolat beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida yangi imkoniyatlarni joriy etish hozirgi zamon taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib,

tashkilotlar faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste`moli mollarini, qishloq xo`jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko`rsatmoqda.

Aholi va tadbirkorlik sub`ektlarini o‘qitish orqali ularning biznes tashabbuslarini moliyaviy va konsultativ qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi va “oilaviy tadbirkor - mikrobiznes – kichik biznes – o‘rta biznes” zanjiri asosida ularning faoliyatini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Bu borada Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘srimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qarori PQ-366-sun qabul qilindi.

Dastur doirasida tadbirkorlarga quyidagi imtiyozlar beriladi.

- kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo‘jaliklari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta’lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik sub`ektlari;

- oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o‘z biznes loyihamalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobjiy kredit tarixiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar onlayn ariza yuborish orqali ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

moliyaviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

- 2 yil imtiyozli davr bilan 7 yilgacha, aylanma mablag‘lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga

- foiz stavkasi (Markaziy bank asosiy stavkasi + 4)

- 1,5 milliard so‘mgacha kreditlar ajratish yoki asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so‘mgacha kreditlarni garovsiz,

150 million so‘mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi

- qiymati 1,5 milliard so‘mgacha bo‘lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan qarzga beradi
- innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘larini ajratadi.

konsultativ qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

- litsenziya, ruxsatnomalar va sertifikatlar olish masalalari, bojxona va soliq ma’muriyatichiligi, eksport va import operatsiyalari, shartnomalarni rasmiylashtirish;
- davlat xaridlarida ishtirok etish, shuningdek, yer uchastkalari va bino-inshootlarni sotib olish yoki ijaraga olish va loyihalashtirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaldagi imtiyoz va preferensiyalar, mavjud boshqa yengilliklar va imkoniyatlar bo‘yicha ma’lumot va maslahatlar berish ishlari amalga oshiradi.

Qarorda ko’zda tutilgan kafillik va konpensatsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yangi marralarni egallahga o’z hissasini qo’shishi ta’biyi.

Berilgan imkoniyatlarni amalda samarasini yanada ko’paytirish maqsadida quyidsagi takliflarni tavsiya etiladi:

- Davlatning veb-saytlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ma’lumotlar bazasini yaratish uchun tashabbus ko‘rsatish kerak. Bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jahon bozoriga kirishidagi to‘siqlarni kamaytiradi;

- Malakali kadrlarni saqlashni ta’minalash uchun hukumat noaniqlikni minimallashtirish yo‘li bilan tadbirkorlarni professional jihatdan o‘ziga jalb qilishi kerak;

Ayollar tadbirkorligini rag‘batlantirish maqsadida, ayollar tadbirkorlarini siyosatni shakllantirish va joriy etishga jalb qilish. Ayol tadbirkorlariga mablag‘

ajratish. O‘zbekiston qishloq va shahar hududida ayollar tadbirkorlariga zaruriy ta’lim berish;

Tadbirkorlik sub’ektlarining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishni, aholi bandligi va farovonligini oshirishning g‘oyat muhim vositasi sifatida Respublika hududlari bo‘yicha ko‘rsatiladigan mikromoliyaviy xizmatlar ko‘lamini hamda hajmini yanada oshirish;

- Ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarga katta e’tibor qaratgan holda mikromoliyaviy sarmoyalarni yo‘naltirish va aholining ish bilan bandligini ta’minlash;

- Imtiyozli mikromoliyaviy resurslar samaradorligini ta’minlash maqsadida, banklar mikromoliyaviy va chakana xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarida yengilliklar yaratib berish borasidagi ishlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim;

- Banklarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini yanada oshirish, bank filiallari va bo‘linmalar bilan qog‘ozsiz ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, axborot-texnologiyalarini va dasturiy ta’minotni takomillashtirib borish.

Xulosa.

Aksariyat mamlakatlarda anchadan beri muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan kafolat fondlari kichik va o‘rta korxonalarga kredit olishi uchun ta’minot taqdim etib, bank va boshqa kredit resurslaridan faol foydalanishiga sharoit yaratib kelmoqda. Bu tajriba kichik biznesning amaldagi sub’ektlarini nafaqat qo‘llab-quvvatlamoqda, balki yangi korxonalarning paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi.

Hududlar rivojlanishida kichik va o‘rta biznes geografiyasini kengaytirish orqali katta samaradorlikka erishishimiz mumkin. Shuningdek, ishchi kuchini qo‘nimsizlik muammosiga nisbatan yumshatilishiga imkon yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000 й. 15 июнь. 51 модда. <http://lex.uz/docs/31846> 8-модда.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 январдаги “Кичик ва хусусий тадбиркорликни микрокредитлаш тизимини янада кенгайтириш ва соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2746-сонли Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 23 мартағи ПҚ 3620 сонли Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сонли Фармони.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. – Т.: “Ўзбекистон”, 2000 й. 15 июнь. 51 модда. <http://lex.uz/docs/31846> 8-модда.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 23 мартағи ПҚ 3620 сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/3593541>

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 15 ноябрдаги “Аҳолини кичик ва ўрта бизнесга кенг жалб қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-366-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/6663044>

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сонли Фармони.

9. Bekmurodov A. A. IMPROVING THE INTRODUCTION OF

DIGITAL TECHNOLOGIES IN COMMERCIAL BANKS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 10. – C. 355-357.

10. Amriddinovich B. A. Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – T. 7. – C. 27-31

11. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB'EKTALARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.

MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING ZAMONAVIY TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDAGI ROLI VA O'RNI

Tursunov Faridun Mustafoyevich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasи assistenti
tursunovfaridun4330@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzallikkleri va kamchiliklari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda uchraydigan ba'ze muammolar o'rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba'ze amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlari haqidagi barcha to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: onlayn-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, bank-mijoz, dibank, chat-botlar, blokcheyn, onlayn tahlil, ekotizim, robotlashtirish, axborot tizimi, to'lov tizimi.

Abstract: This article examines the concept of remote banking services, its role and place in the activities of modern commercial banks, the main directions, advantages and disadvantages of the development of remote banking services, some problems encountered in the development of remote banking services, and some practical suggestions and recommendations are given to solve these problems. In the practice of commercial banks of Uzbekistan, it was analyzed on the basis of all accumulated statistics on remote banking services.

Keywords: online banking, internet banking, mobile banking, sms banking, banking-client, dibank, chat bots, blockchain, online analysis, ecosystem, robotization, information system, payment system.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida masofaviy bank tizimlarining dolzarbliji masofaviy bank xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan bog'liq. Masofaviy bank

tizimlarini o'rganishning asosiy mezoni elektron bank xizmatlarini yanada rivojlantirish muammolari va istiqbollarini o'rganish hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning evolyutsiyasini mamlakat pul aylanmasining tezlashtiruvchisi bo'lgan innovatsion bank texnologiyalaridan samarali foydalanmasdan amalga oshirish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev o'z nutqida bu borada "...bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko'rishimiz lozim. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko'lami transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e'tiborimiz markazida bo'ladi" deya, aytib o'tgan edilar [1].

Murojaatnomadan keyin 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko'lami transformatsiya dasturi va har xil innovatsiyalarni joriy etish amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari so'ngi yillarda bank tizimini ommaboplashtirish va erkin raqobat sharoitiga moslashtirish ko'zda tutilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2018 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko'rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [2].

Yangi texnologiyalarning joriy etilishi, aloqa vositalarining rivojlanishi bankning turli hududdagi mijozlarga xizmat ko'rsatishi, shuningdek, qog'ozbozlikni qisqartirish imkonini beradi. Bank tizimining rivojlanishi bir qancha sabablarga bog'liq bo'lib, ular orasida birinchi navbatda yangi axborot texnologiyalari joriy etilishi bilan iste'molchi turmush tarzining o'zgarishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiyy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Xususan, Rus iqtisodchisi Lavrushin O.I.

fikriga ko'ra "Uy sharoitida bank operatsiyalarini amalga oshirish elektron texnologiyalardan foydalanishga asoslangan aholiga bank xizmatlari ko'rsatishning mustaqil shakli hisoblanadi. Har bir operatsiyani boshlashdan oldin, hisob egasi tizimga noqonuniy ulanishdan himoya kodidagi kalitni oladi. Ushbu tizimdan foydalanish joriy hisob, depozit, mijozning byudjet bilan hisob-kitoblarini, to'lov va jamg'arma hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beradi" [3]. Jarkovskaya E.P. fikricha "Bank xizmatlarini mijoz va bank xodimi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lgan bank ofisida emas, balki uyda, mijozning ofisida, ya'ni ikkinchisi uchun qulay bo'lgan joyda ko'rsatish kerak" [4]. Mijozlarga bankka kelmasdan, turli telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish[5].

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda masofaviy bank xizmati – bu bank xizmatlarini masofadan turib, bank ofisiga bormasdan, mijoz va bank xodimlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan, telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda, ko'pincha mobil telefon yoki noutbukdan foydalangan holda ko'rsatish deb ta'rif berish mumkin.

NATIJALAR

Bank biznesidagi raqobat masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatadi. Kredit tashkilotlari uchun keng molivayi salohiyatga ega bo'lishi muhim, chunki texnologik bazani tubdan yangilash uchun katta sarmoyalar talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, malakali mutaxassislarni jalgan etish, zamonaviy bank xizmatlariga kadrlar tayyorlash uchun muayyan vaqt kerak bo'ladi. Shuningdek, onlayn tranzaktsiyalar xavfsizligiga katta e'tibor berilishi kerak. Masofaviy bank xizmatlarining o'sishi bilan kiber jinoyatlar soni ham ortib bormoqda.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish

strategiyasi”¹² ishlab chiqildi. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha birqator maqsadli ko‘rsatkichlar rejalashtirildi. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatimizda samarali bank tizimi va uni faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda masofaviy bank xizmatlarining roli katta[3].

Masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi tufayli fuqarolarning turmush tarzining tubdan o‘zgarib borayotgan jadal transformatsiyalar davrida jismoniy aloqa orqali an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanishga odatlangan va masofaviy bank tizimidan foydalanishdan bosh tortgan konservativ mijozlarga e’tibor qaratish zarur. Shuning uchun, banklar uchun an’anaviy mijozlar bilan aloqani saqlab qolish juda muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham bu masalani ko‘rib chiqmoqda va internet texnologiyalari rivojlanishi tufayli butunlay an’anaviy bank biznesi yo‘qolmasligini ta’kidladi.


Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan “Uzcard” to‘lov tizimi jahon talablariga javob beruvchi yuqori darajada himoyalangan bo‘lib, har bir plastik karta egasi karta hisob raqamidagi pul mablag‘larini tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi shaxsiy identifikatsiya raqamiga ega. Bunda esa begona shaxslar tomonidan soxtalashtirish va plastik karta egasi ruxsatisiz foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Undan tashqari respublikamizda “Uzcard” to‘lov tizimiga raqobatdosh bo‘la oladigan yangi tizimi “Humo” to‘lov tizimi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu tizim respublikamizda faoliyatini boshlagandan so‘ng mijoz tanlash huquqiga ega bo‘ldi. 1-rasmda masofaviy bank xizmatlarining xususiyatlarini ajratib ko‘rsatamiz.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag‘i PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.



1-rasm. Masofaviy bank xizmatining xususiyatlari

Endi biz masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz (1-diagramma).



1-diagramma. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni¹³ (2023-yil 1-oktabr holatiga)

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2014-2023-yillarda (oxirgi 10 yilda) respublikamiz tijorat banklarida masofadan bank xizmatlarini

¹³ www.cbu.uz

ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o'sish tendensiyasi kuzatilgan.

Tijorat banklarning respublika bo'ylab keng filiallar tarmog'i mavjudligi, bankka kelib uning xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlari sonining ko'pligi sababli ham ularda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni nisbatan ko'proq. Bu esa, ushbu xizmat turlarining tobora va jadal rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

XULOSA. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlanish istiqbollari bo'yicha olib borgan tahlillar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Banklarning mobil ilovasini takomillashtirish va ko'proq xizmatlar turini mobil ilovada joylashtirish kerak. Xususan, xalqaro pul o'tkazmalariga integarsiyalashuv orqali xorijga mablag'larni jo'natish va qabul qilish, plastik kartalar virtual emmisiyasi xizmatini kiritish kabilar shular jumlasidandir.

2. Banklarning interaktiv mahsulotlarini ko'paytirish kerak. Masalan, pulli reklamalar, savdo komissiyasi kabi molivaviy hamkorliklarni ilovalarda joylashtirish kerak. Har bir bank o'zining mintaqaviy ekotizimni yaratishi kerak.

Masofaviy bank tizimlarini rivojlantirishning yana bir zamonaviy tendentsiyasi - bu o'yinlashtirish kabi texnologiyalarni joriy etishdir. Mijoz o'yin ko'rinishidagi barcha kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Banklarning masofaviy bank xizmatlari tizimida yangi chat-bot tizimlarini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Banklar uchun ushbu texnologiyaning joriy etilishi bank xarajatlarini tejashga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagи «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Murojaat (2018). Xalq so‘zi gazetasining 23 dekabr soni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagи PF-5992-sonli “2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>.
4. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.
5. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
6. Корнилова,Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Коринилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.
7. Karimova A.M., Tursunov F.M. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. 2023-yil. 6-12 betlar.
8. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo'nalishlari."Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.
9. Bekmurodov A. A. Banklarni trasformatsiya qilish sharoitida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 83-86.
10. Tursunov Faridun Mustafoyevich. (2023). OPPORTUNITIES FOR REMOTE BANKING SERVICES TO GROW IN REPUBLIC OF UZBEKISTAN'S COMMERCIAL BANKS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 4–7.

**XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA
MARKETING TADQIQOTLARINING O`RNI VA BOG`LIQLIK
JIHATLARI**

Muxammadiyev Kamoliddin G`ulomiddinovich

- *SamISI mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda marketing tadqiqotlarining o`rni va bog`liqlik jihatlari ilmiy isboti qilib berilgan

Kalit so`zlar: xizmat ko`rsatish, marketing, texlogiya , raqobat, bozor, iste`mol, unumdonlik, samaradorlik, fan.

Abstract: In this article, the role of marketing research in the development of the service industry and its related aspects have been scientifically proven.

Key words: service, marketing, technology, competition, market, consumption, productivity, efficiency, science.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining muvaffaqiyatli innovatsion faoliyati jarayoni bevosita samarali marketing tadqiqotlariga bog'liqdir. Xizmat ko'rsatish korxonalarida marketing ham falsafa, ham texnologiyadir funksiyasini bajaradi. Innovatsiyalar samaradorligining muhim sharti innovatsion xizmatni joylashtirishdir. Marketing omillaridan tashqari, xizmat ko'rsatish korxonasi boshqaruving sifati va yo'nalishi muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish korxonasi innovatsion faoliyatining muhim jihatlari quyidagilarda aks etadi:

- innovatsion xizmatlar provayderi sifatida ijtimoiy guruhning mavjudligi;
- vertikal emas, balki gorizontal shaklga ega bo'lgan tashkiliy tuzilma;
- xodimlarni rag'batlantirish, o'qitish va muloqotni o'z ichiga olgan xizmat ko'rsatish madaniyatini yaratish. Raqobatchilar uchun infratuzilma va texnologiyani taqlid qilish korporativ madaniyatni qayta tiklashdan ko'ra osonroqdir.

Shunday ekan, innovatsion rivojlanish faqat shunday holatda samarali bo‘ladi, qachonki innovatsiyalarni joriy etish xizmat ko‘rsatish korxonasining barcha faoliyat yo‘nalishlarida sodir bo‘lganda.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligi quyidagi mezonlarda o‘z aksini topadi:

1. Innovatsiyalar xizmat ko‘rsatish sohasiga belgilangan vaqtida emas, balki tizimli ravishda va raqobatchilardan oldinda bo‘lishi kerak.
2. Korxonaning rentabelligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish, imijini yaxshilashda ifodalangan samaradorlik.
3. Innovatsiyani iste’molchiga yo‘naltirish, ya’ni yangi qiymat yaratish.
4. Xizmat ko‘rsatish jarayonida innovatsiyalarning yuqori tezligi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, kompaniya bozorga kirgandan keyin birinchi 18 oy ichida yangi xizmatdan jami operatsion foydalaning yarmini oladi.
5. Innovatsiyalar biznesning bir necha darajalarida – texnologik innovatsiyalardan tortib, boshqaruv va marketing faoliyatigacha tadbiq etilganda samarali bo‘ladi.
6. Xizmat ko‘rsatish sohasiga ilmiy yangiliklar va ilmiy tadqiqot natijalarini joriy etishning texnologik imkoniyatlarini real baholash imkonini beruvchi risklarni nazorat qilish.

STAR va IRI usullari innovatsiyalar samaradorligini baholashning xorijiy amaliyot bo‘yicha eng keng tarqalgan baholash usullari hisoblanadi. Mahalliy ilmiy adabiyotlarda korxonaning innovatsion faolligi hamda uning innovatsion raqobatbardoshligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar odatda resurs-sarf yondashuvi, vaqt, yangilanish va tuzilmaviy xususiyatlari bo‘yicha guruhlarga ajratiladi. Biroq, innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning barcha usullarini xizmat ko‘rsatish korxonalariga qo‘llash mumkin emas. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyat samaradorligi mezoni tanlab belgilanadi. Innovatsiyalarni miqdoriy baholash masalasi hali ham yetarli darajada yoritib berilmagan. Samaradorlikning bir qismi sifatida ijtimoiy samaradorlik va boshqa sifat mezonlari kabi komponent ko‘pincha e’lon qilinadi, ammo ularni miqdoriy

baholash (raqamlı hisoblash) usullari keltirilmaydi. Bundan tashqari, innovatsiyaning iqtisodiy samaradorligini xaridor nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish nuqtayi nazaridan mavjud yondashuvni ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunda jahondagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ilgarigi bosqichlardagi taraqqiyotdan jiddiy tarzda farq qiladi. Iqtisodiyotida iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlariga bog'liq holda iqtisodiy barqarorlikka erishishning zamonaviy talqini yangicha yondashuvlarni zarurat etoqda. Bizning fikrimizcha, bu holat jahon mamlakatlari tadrijiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

1. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda axborot texnologiyalari moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda, ammo uni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'siri masalalari alohida dolzarb hisoblanadi. Bunga bog'liq holda, sanoatga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlikni yuqori ekanligini ko'pchilik xorij iqtisodchilari xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni industrial tarmoqlarga nisbatan pastligi bilan izohlaydilar.

2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, barcha xizmat turlari bo'yicha fan texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlarini mehnat jarayoniga joriy etish bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega emas, bu esa o'z navbatida samaradorlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bir qator an'anaviy xizmatlar, xususan, umumiy ovqatlanish bilan bog'liq subyektiv xususiyatga ega xizmatlar standartlashtirish va texnikalashga unchalik ham mos kelmaydi. Bu kabi xizmatlar FTT yutuqlarini tez qabul qilsa ham, ular ko'proq iste'molchilarning xohish-istagi va xizmat ko'rsatish darajasiga bog'likdir. Agar, ular past darajada bo'lsa, bu hol ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, xizmatning bu turlarida unum dorlik darajasini oshirishga axborot-texnologiyalari unchalik katta ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

3. Servis faoliyati unumdorligini o'sish darajasining turlichaligi xizmatlar ko'rsatish jarayonida FTT ta'sirini har-xilligi, iste'molchilarni xizmatlar iste'moliga jalb qilinish darajasiga bog'liqligi bilan asoslanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish jarayonini modernizatsiyalash bilan bog'liq unumdorlik omili mezoniga ko'ra, individual xizmatlar ko'rsatishda, progressiv xizmatlarga nisbatan samaradorlik oshmasligi mumkin.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida (servis iqtisodiyotida) samarali xo'jalik faoliyatini tashkil etish industrial iqtisodiyotga nisbatan kengroq darajada o'rganilgan. Bunda dastlab, ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish turmush sifati, mehnatni jarayonlarini intellektuallashuvi hamda xizmat ko'rsatish jarayonlari intensivligini ta'minlash bilan izohlanadi.

R.Solou tomonidan 1987-yilda ishlab chiqilgan "Unumdorlik paradoksi"ga muvofiq kompyuterlarga qilingan investitsiyalar hajmining o'sib borishi, shunga mos ravishda xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlikni oshishiga olib kelmag'an. Uning ta'kidlashicha, XX asrning 80-yillarda AQSh da kompyuter texnologiyalariga qilingan investitsiyalar 1 trln. AQSH dollarini tashkil qilgan, uning 85,0 %i xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan. Biroq, ushbu sohada mehnat unumdorligining yillik o'sish hajmi 1,0 %ni tashkil qilgan. O'tgan asrning 90-yillarda esa AQSH sanoatida unumdorlikning o'sish sur'ati 3,0 %ni, yaxlit iqtisodiyotdagi unumdorlikning o'sishi 1,1 %ni tashkil etgan. Mazkur holat bo'yicha shunday xulosa qilish mumkin, unumdorlikni umumiyo'ko'rsatkichini past ko'rsatkichga ega bo'lishiga uchinchi sektorda (xizmat ko'rsatish sohasida) unumdorlik darajasining pastligi sababdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida unumdorlik darajasining pastligi sababini quyidagicha izohlash mumkin. Bir tomonidan, xizmatlar fan sig'imi yuqori kapital va intensiv (kognitiv) bilim talab etadigan tarmoqlarni o'z ichiga qamrab olsa, ikkinchi tomonidan, texnologik jihatdan past bo'lgan va mehnat talabchanligi yuqori bo'lgan tarmoqlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida yuqori malakaga ega va yuqori ish haqi

oladigan xodimlar ham, past ish haqi oladigan xodimlar ham faoliyat yuritadi. Mazkur holat albatta unumdorlik darajasini pasayishiga ta'sir ko'rsatadi.

Fundamental va amaliy tadqiqotlarga e'tibor qaratsak, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega bo'limgan barcha xizmat turlari mehnatini kapitalga (unumli) almashtirish qobiliyati mavjud emas, bu holat o'z navbatida korxonalar samaradorligi va yalpi unumdorligiga ta'sir qiladi. Shuningdek, iste'mol xususiyati bilan belgilanadigan va ijtimoiy xizmatlar samaradorligini past ekanligi bir qancha sabablar bilan izohlanadi. Amalda mavjud bo'lgan ba'zi an'anaviy xizmatlar (mehmonxona, umumiyl ovqatlanish va maishiy xizmat kabilar subyektiv jihatlarga ega) standartlashtirish va texnikalashga ko'p hollarda muvofiq kelmaydi. Ba'zi xizmat turlari, masalan, sog'liqni saqlash xizmati fan texnika yutuqlarini o'ziga tez qabul qilsa ham, ular ko'proq iste'molchining xohishi va istagiga, xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liqdir. Agar, bu xizmatlar past darajada bo'lsa, mazkur holat ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun xizmatning ushbu turlarida unumdorlik darajasini o'sishiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari unchalik katta ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Iste'mol va ijtimoiy xizmatlarda unumdorlik darjasini past bo'lishi muayyan qiyinchiliklarni, xususan, xizmat sohasida band bo'lганlar mehnat haqi va unumdorligi nisbatida muammolarni keltirib chiqaradi. Bu holatning tahliliy jarayonini keyingi paragraflarda ko'rib chiqamiz.

Xulosa qilsak, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ish bilan bandlik muammosini ayniqsa, xotin-qizlar, oilalar daromadlarini muntazam ko'paytirish, yoshlar bandligi darajasini oshirish hamda aholi farovonligini ta'minlash imkonini beradi. Bu, shuningdek, iste'mol bozorlarini turli xil raqobatbardosh xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish orqali aholi turmush darajasini oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Axmedjanov A.R. Xizmat ko`rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish. Diss. Iqtisodiyot fanlaridan PhD. – Samarqand: SamISI, 2021. 30-31-b.
2. Solow R We`d Better Out // New York Revier of Books. 1987. July 12, - R. 36.
3. <https://book24.ru/product/finansovaya-politika-v-sfere-innovatsiy-problemy-formirovaniya-i-realizatsii-mo-6297726/>
4. Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi. Dis. avtoreferati. Samarqand: SamISI, 2008.- 23 b.;
5. Mirzayev Q.J., T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov va boshqalar: Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti (derslik) , Samarqand-2021 y.
6. Bekmurodov A. A. KICHIK BIZNES SUB'EKTALARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI //Теория и практика современной науки. – 2023. – №. 6 (96). – С. 20-24.
7. Bekmurodov A. A. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH VA INFORMATSION TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 87-89.

INVESTMENT PROJECT ANALYSIS CONCEPT

Norqulov Habibullo
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Bank ishi” kafedrasi assistenti
BI-422 talabasi Roziqov Nodir

Annotation: Different definitions of the investment project are given in different literature. Simply put, a project is a set of interrelated activities that serve to achieve defined goals with a limited time and a fixed budget.

Key words: project scope, project duration, project type, project life cycle, pre-investment stage, investment stage, operation stage, project environment, economic factors, project leader, project team.

Annatatsiya: Turli adabiyotlarda investitsiya loyihasiga turli xil ta’riflar berilgan. Oddiy qilib aytganda, loyiha - bu cheklangan vaqt va qat’iy byudjet doirasida ma'lum maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'liq tadbirlar majmuasidir.

Kalit so’zlar: loyiha ko’lami, loyiha davomiyligi, loyiha turi, loyihani hayot davri, investitsiya oldi bosqichi, investitsiya bosqichi, ekspluatsiya bosqichi, loyiha muhiti, iqtisodiy omillar, loyiha rahbari loyiha jamoasi.

Introduction

For the convenience of analysis and synthesis of projects, different control systems can be classified on different bases. type of project (according to the main areas of activity of the project under implementation): organizational, economic, social and mixed.

Project class (structure and system of the project and its science by area): monoloyiha, multiloyiha, megaloyiha. Monoloyiha is a separate project of different types, construction and size. Project scope-(by project size, number of participants and level of environmental impact): small projects, medium-sized projects, large projects, very large projects.

Project duration (in terms of project implementation time duration): short-term The project team is a special organizational structure, managed by the

project leader and formed during the project implementation period. (up to 3 years), medium-term (over 5 years).

Complexity of projects (by degree of complexity): simple, complex, very complex.

Project type (by the nature of the science field of the project): investision, innovation, R & D, mixed. Investision projects typically include projects that require investision deposits, with the primary purpose of producing the underlying funds, upgrading. Innovation projects, systems projects will be introduced that will ensure development, the main purpose of which is the development and application of new technologies, know-how and other innovations.

The head of the project –is a legal entity, to which the customer and investor report in the management of the project, in the management of affairs: planning, supervision and management of the work of all participants in the project. In small projects, the project manager manages the project.

The project team – is a special organizational structure, managed by the project leader and formed during the project implementation period.

The contractor is the side or participant of the project, interacts with the customer, takes responsibility for the execution of work under the contract – it can be a whole or part of the project.

A sub-secretary is responsible for the performance of contractual work and services, when entering into contractual relations with a higher-level contracting officer or sub-secretary.

A sub-secretary is responsible for the performance of contractual work and services, when entering into contractual relations with a higher-level contracting officer or sub-secretary.

The developer — is a legal entity that performs project research work under the project by contract. Enters into contract relations with the main contractor of the project or directly with the customer.

The main intermediary is a legal entity, the offer of which was accepted by the customer. Responsible for the performance of work on a contractual basis.

Suppliers are sub – operators, they carry out various delivery work on a contractual basis-materials, equipment, vehicles, etc.

The authorizers — are organizations that allow for the right to own land, trade, certain types of work and services, etc.

Government organizations — are the parties that satisfy their interests through taxation in project participants and are associated with the implementation of the project.

The owner of the land area — is a legal entity or a natural person, the owner of the land area to which the project is involved. Gives the right to own or use land under contract and comes into contact with the customer.

The manufacturer of the final product of the project – carries out the use of the resulting basic percentages and produces the final product.

Final product consumers — legal and physical they are individuals, buyers and users of products, form a demand for it by defining the requirements for the product being produced and the services provided.

Analysis and results

Project analysis is a method of preparation, evaluation and selection of projects based on the systematic assessment and disclosure of costs and revenues and project-related rigidity (risk). A large part of the project analysis is carried out at the initial stage of the project period, that is, until a decision is made on whether to accept it or not. In a project analysis, income and expenses are estimated from the following 7 points of view, and they form 7 sections of the project analysis.

- ✓ Commercial analysis: is there a demand for the project product in the market?
- ✓ Technical analysis: is the project technically grounded?
- ✓ Finance: is a project financially viable?
- ✓ Ecology: does the project affect the environment?

- ✓ Will the costs incurred on the project be borne by those who use it (consumer)?
- ✓ Institutional development: are the organizations responsible for the project capable of implementing and exploiting it?
- ✓ The suitability of the project for social and cultural requirements: is the project adapted to local conditions? Does the project affect certain groups of the population?
- ✓ Economy: are the positive results of the project more than the cost of its implementation and exploitation? What is the risk level in the project?

The following factors contribute to projects more impact:

1. Increase in the requirements of Project customers and their qualification (development of the project and implementation requirements, complication of project estimate documents, increased requirements for the organization of tenders)
2. Innovation and complication of final products (ICT products, food requirements, environmental requirements, competitiveness, large-scale economy, etc.)
3. Global environmental requirements (see environmental analysis).
4. Risk analysis and Risk Management Review in a separate section of the project.
5. The acceleration of Technology Exchange and the difficulty of technology selection.
6. Application of new standards (biomahsulot, organic product, halal standard. ISO 2000, HACCP I etc.

It is also imperative to take into account the following omols:

- inflation;
- innovation;
- complexity of technology;
- unqualification;
- irresponsibility and other factors.

Conclusions

1. Documents and information that will be based on the development of an investment project will be expressed in the investment concept.
2. The investment project concept is the main analytical project receipt document after the approval of the project idea.
3. On the basis of the project concept, project components are formed.
4. Projects are classified based on different criteria. As a result of classification, the approach to the project is determined.
5. The project has a life cycle, the stages of which are studied separately.
6. The responsible and expected results of each project stage are determined.
8. Identification of the object and subject of the project contributes to a clear knowledge of the concepts about the project.
9. What to analyze in Project analysis-depends on such factors as the scale, complexity, technology of the project.
10. The project mainly analyzes many indicators such as its commercial indicators (marketing, profit, profitability), technology and technology, impact on ecology, impact of institutions on the project, personnel and their selection, social significance of the project, impact on the economic development of the project God (or country), risks and opportunities for their management, methods.
11. Professional analysis of the project allows you to avoid future costs and losses.
12. The role of the state in the production and implementation of projects is great.

Literature

1. Kosimov M.S. Abduvaliev a Loikhalar analysis T: TDIU 2018 "Economics" 112B.
2. M.S.Kasimov, G.Ya. Mukhamedzhanova. Analysis of investment projects. Tashkent:.TDIO 2011.208 b.
3. Kolmikova T.S. Investisionny analysis. Uchebnoe posobie.– M.:INFRA-M, 2010.– 204 P.
4. Nikonova I.P. Projektniy analiz i projektnoe finansirovanie.–M.: Alpina Publisher, 2012 g. -154 P.
5. Doklad "Technologicheskaya modernization I Effektivnost: Novie podhodi I meri gosudarstvennoy politiki", TSEI, July 2014. - S. 24.
6. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatida transformasiyalanish jarayonlarining asosiy yo'nalishlari." Форум молодых ученых 6 (82) (2023): 3-9.
7. Bekmurodov, A. A. "Banklarni trasformatсиya qilish sharoитida masofadan xizmat ko'rsatish tizimini ommalashtirish." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 83-86.
8. Bekmurodov, A. A. "Improving the introduction of DIGITAL technologies in commercial Banks." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 9.10 (2021): 355-357.

**O'ZBEKISTONDA XIZMAT KO'RSATISH SOHANI
RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA
ZARURATI**

Muxammadiyev Kamoliddin G'ulomiddinovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Mustaqil tatqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohani rivojlantirishning strategik yo'nalishlari va zarurati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xizmat, strategiya, texnologiya, mahsulot, kommunikatsiya, iqtisodiyot, kadr, samaradorlik, narx, investitsiya, soliq, budjet

Abstract: In this article, the strategic directions and necessity of the development of the service sector in Uzbekistan are researched.

Key words: service, strategy, technology, product, communication, economy, personnel, efficiency, price, investment, tax, budget.

O'zbekistonda xizmatlar sohasiga mujassamlashgan ulkan salohiyatni ruyobga chiqarish, uni milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi rolini keskin oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratishdagi mavqeini mustahkamlash ushbu tarmoqni taraqqiyotning an'anaviy modelidan uning innovatsion modeliga o'tishini taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi sohani strategik asosda rivojlantirishning ahamiyati va zarurligini mantiqiy dalillar asosida asoslab berish zarur.

Birinchidan, kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida innovatsiyalar fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, kommunikatsiyalarning yangi vositalari, xizmatlarning yangi turlari, boshqarishning va aholi iste'molini qondirishning yangi usullarini qo'llash asosida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini tez va barqaror yuksaltirishga imkoniyat tug'diradi. Strategik taraqqiyotning natijaviyligi uning inson

faoliyatini barcha turlarini va milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini qamrab olish darajasi bilan belgilanadi. Bu borada xizmat ko'rsatish sohasi va uning infrastrukturasi ham milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida, istisno emas. Xizmat ko'rsatish sohada ro'y berayotgan intensiv o'zgarishlar, bir tomondan, xizmatlarga talabning uzluksiz o'sib borayotganligi, ikkinchi tomondan, uni strategik rivojlantirishni o'tkir zaruratga aylantiradi, qolaversa, ushbu tarmoqning integratsion jarayonlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatish soha sida strategiyalarning paydo bo'lishi va amal qilishi ushbu tarmoqda tizimli, bir-biriga uzviy bog'liq va katta ijobiy samara beradigan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Ikkinchidan, globallashuv jarayonlari jadallahuvining bevosita xizmat ko'rsatish bozorida raqobat muhitining tobora keskinlashib borayotganligi xizmatlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omiliga aylanganligi. Xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – uning yuqori daromadligidir. O'ylaymizki, aynan uning yuqori daromadliligi va yuqori ijtimoiy samara berish qobiliyati barcha mamlakatlarni uni jadal rivojlantirishga, sohada mujassamlashgan ijobiy jihatlaridan foydalanishga qiziqishini kuchaytirmoqda. Natijada yangi xizmat ko'rsatish ob'ektlar ishga tushirilmoqda, yangi yangi xizmat turlari yaratilmoqda, yangi korxona va tashkilotlar tashkil etilmoqda, malakali kadrlar jalb etilmoqda, raqobat kurashida o'z mavqeini mustahkamlashning boshqa innovatsion vositalari yaratilmoqda. Strategiyalarning paydo bo'lishi, joriy qilinishi, amal qilishi xizmatlar bozorida marketolog lar va menejerlar mavqeini mustahkamlashning va raqobatbardoshligini oshirishning birinchi darajali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini taraqqiyotini strategik yo'lga o'tkazish zarurati mamlakatning ushbu tarmog'ida rivojlanish sur'atlarining sustligi, xizmat ko'rsatish salohiyatdan foydalanish ko'rsatkichlarining pastligi, jahon xizmatlar bozoridagi mavqeining zaifligi, xalqaro taqposlama va tenglashtirishlarda bardosh bera olmayotganligi bilan izohlanadi. Yurtimizda xizmat ko'rsatish sohada bunday holatning yuzaga

kelishining sabablari quyidagilarda deb hisoblaymiz: soliq va byudjet siyosatining beqarorligi, xizmat ko'rsatish sohasini tartibga solishdagi xuquqiy-me'yoriy bazaning nomukammalligi, xizmatlar sifatining talabga javob bermayotganligi, narx siyosatining samarasizligi, infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi, investitsion resurslarning tanqisligi, malakali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi va boshqalar.

To'rtinchidan, strategiyalar xizmat ko'rsatish korxonasi va tashkilotlari uchun yuqori ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Alovida olingan xizmat ko'rsatish korxonasida tashkiliy innovatsiyalar (masalan, mehnatni ilmiy tashkil qilish, innovatsion menejment) jismoniy mehnatni yengillashtirishga, ishchi-xodimlar mehnat sharoitini yaxshilashga, qo'l mehnatining jami mehnat sarflaridagi ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Xizmat ko'rsatish korxona yoki tashkilotda texnologik innovatsiyalarning joriy etilishi ishchi-xodimlar malakasini oshirish, mehnat unumдорligini o'stirish, ish haqi daromadlarini ko'paytirish, resurslarni tejash asosida korxona yalpi daromadlari va foydasini ko'paytirish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, strategiyalar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Amalda ular foydani ko'paytirish orqali iqtisodiy samarani oshirishning quroli, vositasi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish soha faoliyati serqirra va murakkab bo'lib, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlар yaratuvchi qulay makon hisoblanadi. Keskin raqobat muhitida faoliyat olib boruvchi xizmat ko'rsatish korxonasi (menejer) nisbatan yuqori sifatli xizmat yaratish, tannarxni pasaytirish, vaqt birligida xizmat hajmini ko'paytirish, iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish va boshqa tadbirlar orqaligina bozordagi o'z mavqeini saqlab qolishga va uni mustahkamlashga erishdi. Bu esa, pirovard natijada tarmoqda yuqori daromadlilikni ta'minlaydi.

Shu sababli, xizmat ko'rsatish soha faqat strategiyalardan o'rinli foydalanish evaziga inson faoliyati barcha turlari o'rtasida eng yuqori daromadli soha sifatida mavqeini saqlab qoladi.

Keyingi yillarda iqtisodiyoti ustun rivojlangan G‘arb mamlakatlarida innovatsion jarayonlar ilmu-fan va bilimning kuchli ta’siri ostida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Nazariy izlanishlarimiz natijasida olgan muhim ilmiy natijalardan yana biri shuki, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohani strategik asosda rivojlantirish nafaqat salmoqli iqtisodiy, balki yuqori ijtimoiy samara ham beradi. Xizmat ko‘rsatish sohani strategiyalarga tayangan holda rivojlantirish jamiyat uchun ham, tarmoq uchun ham, uning tarkibidagi alohida xizmat ko‘rsatish korxona, tashkilot va kompaniyalar uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bizningcha, jamiyat darajasida xizmat ko‘rsatish sohani strategik asosda rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati, birinchi navbatda, aholi bandligini oshirish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, iqtisodiyot sohasidagi adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish sohani strategik taraqqiyot yo‘li undagi mavjud qo‘nimsizlikni bartaraf etishning va uni barqaror rivojlantirishdagi alohida ahamiyati e’tirof etilgan.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Голубев А.А. Экономика и управление инновационной деятельностью. Учебное пособие. – СПб.: НИУ ИТМО, 2012. – С. 7.
2. Козлов К., Соколов Д.Г., Юдаева К.В. Инновационная активность российских фирм. // Экономический журнал. Высшей школы экономики. – 2004, №3. – С. 405.;
3. Knyazev S. Application of dynamic capabilities of the economic system for the purposes of sustainable innovation development // Proceedings of the International Scientific Conference "Competitive, Sustainable and Secure Development of the Regional Economy: Response to Global Challenges" (CSSDRE 2018). P. 301-304.
4. Мирзаев Қ.Ж., Т.С.Шарипов, Ш.А.Султонов ва бошқалар: Хизматлар соҳаси иқтисодиёти (дарслик) , Самарқанд-2021 й.

5. Қувондиқов Ш.О. Хизмат соҳасида оилавий тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари. Иқтисод фанлари номзоди. Дис. автореферати. Самарқанд: СамИСИ, 2008.- 23 б.
6. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatining iqtisodiy va texnologik muhitidagi strategik tendensiyalar." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 824-828.
7. Bekmurodov, A. A. "Tijorat banklari faoliyatini raqamlashtirish va informatsion texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari." Экономика и социум 6-1 (109) (2023): 87-89.
8. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB'EKTALARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.

Аҳоли молиявий саводхонлиги даражасига таъсир кўрсатувчи омииллар турли туман бўлиб, уларнинг ҳар бирига алоҳида эътибор қаратиш орқали тегишли чора-тадбирларнинг ишлаб чиқилиши мазкур кўрсаткичнинг самарадорлигини таъминлайди. Мамлакат иқтисодиётининг ривожланганлик даражаси аҳоли молиявий саводхонлик даражасига ижобий таъсир кўрсатади. Шунга кўра, ривожланганлик даражасидан қатъий назар, ҳар бир мамлакат ўз иқтисодиёти ҳамда аҳоли менталитети хусусиятларидан келиб чиқсан ҳолда аҳоли молиявий саводхонлик даражасини ошириш бўйича мунтазам ва тизимли чора-тадбирларни ишлаб чиқиши муҳим ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги Фармон. 12.05.2020 йил.

2. Вахабов А.В., Дустмуҳамедов О.С. Молиявий саводхонлик тушунчасининг назарияси асосларини такомилаштириш Банклар ва молия бозори 2022 й. 5 (153)

3. Вафоев И.Барқарорлик ва фаровонликнинг асоси ЗАРАФШОН газетаси.2023 й.19 октябр

4. Банк хизматлари оммаболлигини ошириш бўйича қўшимчта чоратадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 марта ПҚ-3620-сон қарори.

5. З.Д.Ниёзов, А.М.Каримова “Банк этикаси” ўкув қўлланма Сам.ДЧТИ 2022 йил.

6. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB'EKTALARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.

7. Bekmurodov, A. A. "TIJORAT BANKLARI FAOLIYATININING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK MUHITIDAGI STRATEGIK TENDENSIYALAR." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 824-828.

PULLARNING BANKLAR FAOLIYATIDAGI VAZIFALARI

Norqulov.Habibullo

Abduvaliyev Samandar

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Shaydullayev Asadbek

Bank ishi kafedrasi assistenti

SamISI talabalari

SamISI Bank ishi kafedrasi assistenti

ANNOTATSIYA

Annatatsiya. Pul maxsulot, tovarlarni ishlab chiqarish va xaridorlarga kerakli vaqt, miqdor va sifatda ma`lum shartlarda ayirboshlashni tashkil etish va boshqarish maqsadida vujudga keldi va xizmat qilmoqda.

Kalit so’zlar: bank kreditlari, pul massasi, banklarning vazifalari, mikro iqtisodiy tizim, mikrodarajadagi faoliyat, inflyatsiya.

Bozor munosabatlarining yuqori sur’atlarda rivojlanib borishi har bir sub’ektning pul, banklar, kredit va moliyaviy bozorlarning dastagi bo’lgan moliyaviy instrumentlar hamda ularda yuzaga keladigan o’zgarishlarga munosabati va qiziqishlarini kuchaytirib boradi. Chunki, bozor mexanizmi iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib tez o’zgarib, yangilanib turadi va shular asosida u mamlakat iqtisodiyotining har tomonlama rivojlanib borishi yo’nalishlarini belgilab beruvchi doimiy harakatda bo’lgan dastak hisoblanadi. Bizni doimo pulning to’lov yoki sotib olish qobiliyati yildan yilga oshadimi yoki pasayadimi? Ehtiyojimizdan ortiq pulimizni bankga omonotga qo’ysak u bizga har oyda yoki yilda necha foiz daromad beradi, mabodo ularni qimmatli qog’ozlarga qo’ysak – qaysi turdag'i va qaysi emitentning qimmatli qog’ozlari bizga yuqori daromad berishi mumkin?

Bank kreditlarining foizi qancha, inflyatsiya yoki pulning qadrsizlanish darajasi qanaqa, milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan kursi qanaqa va uning tez orada o’zgarishi bo'yicha qanday prognozlar mavjud kabi savollar qiziqtiradi hamda biz o’z – o’zidan bozor munosabatlarining faol ishtirokchilariga aylanamiz. Bu masalalar bozor munosabatlarining sub’ekti bo’lgan yuridik shaxslar faoliyatida har kuni echimini talab qiladigan

vazifalardan hisoblanadi.Jahon iqtisodiy fanida o’z asarlari bilan mashg’ur bo’lgan iqtisodchi – olim Frederik S. Mishkin “Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyası” kitobida shunday misol keltiradi1.

D.Yum A.Smitning pul xususidagi qarashlariga e’tiroz bildirib, “Pul bu – savdo – sotiqning g’ildiragi emas, balki u yog’, shu savdo – sotiq g’ildiragini erkin va yumshoq yurishiga imkoniyat yaratadigan vositadir” degan fikrni bildiradi.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar ham pulning iqtisodiy mohiyatiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, iqtisod fanlari doktori, professor B.I.Sokolov pulning mohiyatiga “pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayirboshlash va to’lovlarni amalga oshirish ishlarini engillashtiradi” deya ta’kidlaydi

Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati tsivilizatsiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. ”Pul” deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo’lishi natijasida odamlar o’rtasida ayirboshlash bilan bog’liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir – biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi.

Pulning vujudga kelishi, uning evolyutsion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funktsiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko’p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishi va uning hozirgi kundagi ko’rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning vujudga kelish sababini bilish uchun qadimda odamlar o’rtasida ro’y bergan ayirboshlash munosabatlarini amalga oshirish jarayoniga e’tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayirboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob – kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo’lib xizmat qiladi:

* qadimgi davrda odamlar o'z ehtiyojidan ortib qolgan iste'mol mahsulotlari turib qolmasligi va saqlashning imkoniyati bo'lmanligi bois ularni o'zlariga yaqin yoki tanish odamlarga bergen, bu o'z – o'zidan odamlar o'rtaida stixiyali ravishda bir tomonlama ayirboshlash munosabatlari vujudga kelishiga sabab bo'lgan;

* keyinchalik odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanganligi natijasida, ikki tomonloma ayirboshlash munosabatlari vujudga kela boshladi. Bu davrda, kishilarda o'ziga zarur bo'lman buyumning o'rniga nimadir olish evaziga, ikkinchi kishiga berishi lozimligini anglay boshladilar.

Shu bilan birga, pul vujudga kelgach, o'zgarib turgan ayirboshlash munosabatlari o'rni o'lchadi va davom etib, mehnat taqsimoti darajasini oshiradi. Pul o'zini natijaviy va juda o'zgaruvchan usulda, odamlarning ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, malakasini oshirish va uning ehtiyojlarini o'rtoqlashtirish jarayonlarida muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan buyum va xizmatlar uchun moslashtiradi.

Pul massasi o'zgarib turadigan, o'zgarishlarga uchrashgan va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan uch xil usullar orqali chiqarilib boradi:

Pulning yaratilishi (Creation of Money): Bu usulda, pul massasi o'zgarib turishi muddatli qimmatli qog'ozlar (masalan, chegirma bilan savdogarlik huquqlari yoki boshqa moliyaviy asoslangan hujjalari) yaratilishi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon moliyaviy institutlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan bajariladi.

Pulni ifoda etish (Expression of Money): Bu usulda, pul massasi o'zgarib turishi, yangi pul tiplari yaratilishi va o'zgarib turishi uchun maxsus protsesslar va tizimlar orqali amalga oshiriladi.

Pulni ifloslanishi (Destroying Money): Bu usulda, pul massasi o'zgarib turish jarayoni, moliyaviy asoslangan qog'ozlarning bekor qilinishi, yaxlitlanishi, ko'chirilishi yoki emizilishi orqali amalga oshiriladi.

Pulning o'zgarishiga olib kelgan iqtisodiy jarayonlar, bu muammoni tahlil qilish, o'zgarishlar va ulardan kelib chiqadigan oqimlar haqida tushuntirish,

iqtisodiy modellarni ishlatish va boshqa iqtisodiy masalalarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganish, iqtisodiyotshunoslik sohasida mustaqil fikrni shakllantirishda yordam beradi.

Mana shunday ma’lumotlar yordamida pulning vujudga kelishi, uni o‘zgarib turish jarayoni va iqtisodiyotga o‘z ta’siri haqida umumiylasavvur qo‘yildi. Agar boshqa savollar yoki qo‘sishimcha ma’lumotlar bo‘lsa, ularni ham so‘rang.

Banklarning vujudga kelishi va ularning tashkil etilish jarayonlari iqtisodiy taraqqiyotning bir qismini tashkil etadi. Banklar, iqtisodiy sistemning yoritilishi, mehnat taqsimoti, kapital akkumulyatsiyasi, tovar-pul munosabatlari va boshqa sohalarda ahamiyatli rol o‘ynaydi.

Dastlabki banklarning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar qisqa va baxmal, lekin ulardan kichik do‘konlarda mahalliy pullarni xorijiy pul birliklariga almashtirib berish, yirik pul egalarining pullari va tijorat veksellarini saqlashga ko‘ra chala chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayonlar, mahalliy savdosotiqlarida moliyaning qayta ishlashiga imkon berdi. Banklar bu tashkil etilgan hisob-kitob va qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish orqali xodimlarni xavfsiz saqlash, tovar-pul munosabatlari paydo bo‘yicha yordam bermoqda edi.

Tarixiy manbalardan ham ko‘rinib turibdiki, dastlabki banklar mahalliy do‘konlarda tashkil topgan bo‘lib, savdo-sotiqlarida moliya bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatgan. Ularda pulni saqlash va uni xavfsiz saqlash, qayta ishlash va boshqa moliya operatsiyalari o‘tgan. Ular, o‘zaro qarz va qarzdorliklar o‘rtasida pulni almashtirishga arziydi. Bu tashqi savdosotiqlarini o‘rnatishda, o‘zaro moliya operatsiyalari va uning yangi turlarini rivojlanishi, banklarning rivojlanishiga olib kelgan.

Boshqa iqtisodiy adabiyotlarda dastlabki banklar haqida o‘zaro farqli fikrlar mavjud bo‘lsa, ularning mahsulotlar, xizmatlar va moliya bilan bog‘liq xizmatlarini taklif etishiga, qarzlar va kreditlarni berishiga e’tibor qaratiladi.

Ular, kapitalistik tuzumning rivojlanish jarayonida, xususan iqtisodiy mablag‘lar tashkil etish va uni boshqarishda muhim vazifalarni o‘z ustiga olgan.

Bundan tashqari, ibodatxonalar ham qadimgi davrda banklar sifatida xizmat qilgan va savdo munosabatlarini amalga oshirishda moliya orqali ishlashgan. Ular o‘zlarini boshqarish, savdo operatsiyalari va mahsulotlarni saqlashda ishtirok etish orqali xodimlarni xavfsiz saqlash, moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazish, tovar-pul munosabatlari, qayta ishlash va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatishgan.

Iqtisodiyot taraqqiyoti bilan birga, banklar o‘z funksiyalarini rivojlantirib, yangi xizmat turlarini amalga oshirishgan. Ularning tizimli faoliyatini ta’minlash, savdo munosabatlarini o‘rnatish, moliyaviy ko‘rsatkichlarni boshqarish va boshqa sohalarda xizmat ko‘rsatish jarayonida banklarning roli murakkabroq bo‘lganligi kutilmoqda.

Banklar iqtisodiy tizimda ahamiyatli o‘rin tutgan tashkilotlardir, va ularning faoliyat sohalarini aniqlashda va mohiyatini tushuntirishda ko‘plab metodologik muammolar mavjud. Quyidagi nuqtalarga e’tibor qilish lozim:

Mikrodarajadagi faoliyat: Banklar, mikro iqtisodiy tizimdagi faoliyatlarida ham o‘z o‘rni bor. Ular, jismoniy shaxslarga kredit berish, saqlash xizmatlarini taklif etish, to‘lovlar va pul o‘tkazmalari orqali xizmat ko‘rsatish va boshqa mikrodarajadagi muomalalarda ishtirok etishadi. Shuningdek, mikrodarajadagi faoliyatlarini o‘rganish, ularning mahalliy iqtisodiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatishda yordam bera oladi.

Tashkil etilish shakli va maqsadi: Banklar turli shaklda tashkil etilgan bo‘lishi mumkin, masalan, savdo banklari, moliyaviy banklar, ijtimoiy banklar, tadbirdorlik faoliyatini olib boradigan banklar va boshqalar. Ularning faoliyat sohalari va maqsadlari bir-biridan farqli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ularning iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati turli bo‘lishi ham e‘tinchoqdir.

XULOSA

Banklarning mohiyatini tushuntirishda ularning faoliyat yuritish shakli, maqsadi, xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmat turlari, mijozlar bilan aloqasi, moliyaviy faoliyat xususiyatlari va boshqa belgilanuvchilarga e’tibor bermoq lozim. Bu esa ularga xos mohiyatini aniqlashga yordam beradi.

Aniq ma’lumotlardan kelib chiqqanicha, banklar tashkilot topish asoslari, mohiyati, faoliyat turlari va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu xususiyatlar banklarning jamiyat tizimida ahamiyatli o‘rin egallashida va uning o‘ziga xos vazifalarni bajarishida katta ro‘l o‘ynaydi.

Tashkil topish asoslari: Banklarning tashkil topish asoslari jamiyatda moliyaviy munosabatlar va iqtisodiy faoliyatning o‘zgarishlariga bog‘liq o‘zgaradi. Bu asoslar iqtisodiy tizimda aholi va korxona munosabatlari, moliyaviy imtiyozlar va shartnoma shakllanishini aniqlashda muhimdir.

Mohiyati: Banklarning mohiyati, ularning xizmatlarni ko‘rsatish, mablag‘larni jalb etish va saqlash, kredit bermoq va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Banklar o‘zlarini xususan xususiyatlarga ega bo‘lgan iqtisodiy tashkilotlar sifatida turib kelmoqda.

Ta’riflar va shakllanish: Banklarning mohiyati uchun tashkil etilgan ta’riflar va shakllanishlar, ularning faoliyat turlarini, xizmatlarini va xodimlarini belgilaydi. Shuningdek, banklar xalqaro moliyaviy munosabatlarda ham faoliyat yuritadigan tadbirkorlik tashkilotlari bo‘lganligi sababli, ularga xos xususiyatlarga ega bo‘lishadi.

Banklar iqtisodiy tizimda asosiy oyinchi bo‘lib, ularning faoliyat turlari, xizmatlar va xususiyatlari jamiyatda rivojlanish va o‘zgarishlarga bog‘liqdir. Shu sababli, ularning tashkil etilish shakli, mohiyati, va faoliyat turlari o‘zaro aloqador va unikallikka ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – – T.: O‘zbekiston, 2017. 104 b.
 2. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – – T.: O‘zbekiston, 2017. 56 b.
 3. Mirziyoyev Sh.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – – T.: O‘zbekiston, 2017. 48 b.
 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5177- sonli farmoni.
 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3270-sonli qarori.
 6. 2017 yil 13 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
 7. Uchqun Yunusovich O’roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022
 8. Т.С Маликов, Н.Х Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009
 9. Т.Маликов, Н.Хайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
 10. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
 11. Bekmurodov, A. A. "TIJORAT BANKLARI FAOLIYATININING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK MUHITIDAGI STRATEGIK TENDENSIYALAR." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 824-828.
-

**MASOFAVIY BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHDA
INNOVATSION BANK TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
USULLARI**

Norqulov Habibullo

Samarqand iqtisodiyot va servis institute

Bank ishi kafedrasi assistenti

Toshmurodov Tolmas

SamISI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishda innovatsion bank texnologiyalarini qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari va O'zbekistonda masofaviy va zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatishning iqtisodiy ahamiyati o'r ganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bank texnologiyalari, masofaviy bank xizmatlari, zamonaviy bank xizmatlari, raqamli banking, bank operatsiyalari, onlayn banking, internet-banking, sms-banking.

Abstract: In this article, the scientific and theoretical foundations of the use of innovative banking technologies in the provision of remote banking services in commercial banks and the economic significance of the provision of remote and modern banking services in Uzbekistan are studied and analyzed.

Keywords: banking technologies, remote banking services, modern banking services, digital banking, banking operations, online banking, internet banking, sms-banking.

KIRISH

Hozirgi davrdagi jadal rivojlanish hamda iqtisodiyotdagi tub o'zgarishlar davrida raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lган bir qancha ilg'or raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Shu sababli aholining turmush tarzini yanada yaxshilash va osonlashtirish, kompyuterlashtirish va mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublikamiz rahbariyati bir qancha qarorlarni qabul qildi va "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim

etiladigan elektron bank xizmatlarini ko‘rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

- zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- nazorat yuklarini, shu jumladan banklarning regulyator va davlat organlari bilan axborot almashinuvini takomillashtirish, hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini soddalashtirish va avtomatlashtirish orqali ularni taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan yuklarni kamaytirish;
- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;
- bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi kontseptsiya va texnologiyalarni joriy qilish (marketpleys, raqamli bank) ” kabi vazifalarning belgilanganligi mavzuning dolzarbigidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga doir bir qator olimlarning tadqiqot ishlari o’rganildi. Ularda olimlarning masofaviy bank xizmatlariga odi fikr mulohazalari tahlil qilindi.

Rus iqtisodchi olimi V.K.Spilichenko fikricha “Bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish bu informasion xizmatlarning kompleksi va mijozning hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni uning bankka tashrif buyurmasdan bergen topshirig‘iga asosan bajarishdir. Bank hisobvarag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi telekommunikatsiya tizimi orqali bankning ma’lumotlar bazasiga mijozning murojaatiga asoslanadi”

N.I.Lixodeyeva esa bank hisob-varag‘iga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimini mijoz tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda

bankka tashrif buyurmasdan ya’ni masofadan buyurtmalar asosida bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyasi sifatida e’tirof etgan.

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlari - bu mijozning masofadan bergen topshiriqlariga asosan ya’bankka kelmasdan bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalari sifatida ta’rif berish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o‘rnataladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma’lumotlarni saqlaydi (asosan to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o‘rtasida modem orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlari (to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

- to‘lovlarni o‘tkazish;
- to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o‘z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi va pul o‘tkazmalarini

tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo‘ladi. Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar;
- hisobvarag‘idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraqlar balansi;
- kun davomida o‘tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma’lumot olish.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, budget, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi. Internet-banking mijozga o‘zining ish joyidan turgan holda internet orqali kerakli bank saytiga ulanib, o‘z hisob-

raqamidan pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi va o'z hisob-raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi mumkin bo'ladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan bank kartasi olish va mobil ilova orqali xaridlarni amalga oshirish uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

- plastik kartani olish uchun o'zi tanlagan bankka pasport bilan murojaat qilish (onlayn tarzda tijorat banklarning rasmiy veb-saytlari orqali ham buyurtma berish

imkoniyati mavjud)

- bank kartasini pul mablag'lari bilan to'ldirish (bankomatning "cash-in" funksiyasi yoki bank xizmatlari markazlariga tashrif buyurish orqali);

- bankka tashrif buyurib yoxud bankomat va infokiosklar orqali bank karta hisobvarag'ini o'z mobil telefon raqamiga bog'lash (biriktirish) orqali sms-xabarnoma yoki telegram-xabarnoma xizmatini faolashtirish;

- tijorat banklari yoki to'lov tashkilotlari mobil ilovalarini Android operatsion tizimli mobil telefon uchun "Google Play Market" internet ilovasidan yoki iOS operatsion tizimli mobil telefon uchun "Appstore" internet ilovasidan yuklab olish (ro'yxat ilova qilinadi);

- mazkur mobil ilovalarda ro'yxatdan o'tish, ya'ni olingan bank karta raqami va

amal qilish muddati kiritilgandan so'ng mobil telefonga kelgan maxfiy kodni kiritish orqali identifikasiyadan o'tish;

- xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mobil ilovaga kirish uchun maxfiy kodni o'rnatish. Mazkur amallarni bajarish uchun hech qanday bank xizmati bo'yicha vositachilik haqi olinmaydi.

"Humo" to'lov tizimi 2019 yilning I-choragidan boshlab ishga tushirildi. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni (11.11.2019 y., O'RQ-582);

- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (05.11.2019 y., O‘RQ-580);
- O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni (01.11.2019 y., № O‘RQ-578);
- “Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom (14.02.2006 y., № 1545);
- “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom (13.04.2020 y., № 3229).

Yevropada bugungi kunda ko‘pchilik onlayn-banking xizmatidan foydalanadi. Statistika ma'lumotlariga ko‘ra, Yevropada katta yoshlilarning 70 foizi kamida oyiga bir marta o‘zlarining onlayn bank hisoblariga kirishadi. Ba’zi Yevropa mamlakatlarida kattalarning 90 foizi internet-banking xizmatidan foydalanadi. Darhaqiqat, so‘nggi 12 yil ichida internet-banking xizmatidan muntazam foydalanayotganlar soni ikki baravar ko‘paydi. Yevropaliklar o‘zlarining tranzaksiya tarixini tekshirish, pul mablag‘larini bir hisobdan ikkinchisiga o‘tkazish, balanslarini tekshirish va to‘lovlarni amalga oshirish uchun raqamli bankingdan muntazam foydalanadilar. Onlayn banklar tobora ilg‘or xizmatlar va moliyaviy mahsulotlarni taklif qilar ekan, odamlar kredit olish, sarmoya kiritish va moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish uchun internet-bankingdan foydalanmoqda.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo’nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati, to‘lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko‘tarilishini ta’minlash

bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Shunday zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy bank xizmatlari, xususan Internetbanking xizmatining faol joriy etilishi eng muhim masaladir. Jumladan, mamlakatning qay darajada iqtisodiy va texnologik taraqqiy topganligi masofaviy bank xizmat turlarini amaliyatga joriy qilishda muhim hisoblanadi. Bank operatsion xarajatlarining barqaror darajasiga erishish uchun tijorat banklarida ham masofaviy bank xizmat turlarini ko'paytirish va ularning samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz
2. Uchqun Yunusovich O'rroqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022
3. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
4. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организаций. – 2014. - №2. – С. 23-27.
5. Saidqulov Murod Hayitboy o'g'li. Elektron bank xizmatlarini rivojlantirish va
6. bank ishini avtomatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Magistr dissertatsiyasi. 2021 yil.
7. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
8. Sherali Sultonov. Directions of state regulation of the stock market. International Journal of Economic Growth and Environmental. 2021
9. Мутабар Жураевна Темирханова, Хусан Баходирович Зарипов,

Ли Шаоминь. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире. Бюллетень науки и практики, 2020

10. УЮ Ўроқов, ФШ Сулаймонов. Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятида электрон ахборот алмашишнинг аҳамияти ва уни такомиллаштириш масалалари. 2014/9

11. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021

12. Bekmurodov, A. A. "KICHIK BIZNES SUB'EKTALARINI TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASHDA XORIJ TAJRIBASI." Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.

13. Bekmurodov, A. A. "TIJORAT BANKLARI FAOLIYATININING IQTISODIY VA TEKNOLOGIK MUHITIDAGI STRATEGIK TENDENSIYALAR." Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 824-828.

ISLOM BANKLARINING ISHLASH TAMOILLARI

Bekmurodov Abbas Amiriddinovich

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

“Bank ishi” kafedrasi assistenti

Xolmo'minov Islom

Bank ishi 420 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy iqtisodiyotda islom moliyasi tushunchasi va islom moliyasiga oid iboralar. Islom moliyasining O'zbekistonda tutgan o'rni va tamoyillari. Islom banklarining paydo bo'lishi va tijorat banklaridan farqi. Islom moliyasiga oid tashkilotlar hamda ularning ishslash prinsipi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, islomiy banklar, murobaha, takaful, mushoraka, mudoraba, IsDB, ICD, ITFC, IRTI.

Annotation: In this scientific article, the concept of Islamic finance in the modern economy and expressions related to Islamic finance. The role and principles of Islamic finance in Uzbekistan. The emergence of Islamic banks and their difference from commercial banks. Organizations related to Islamic finance and their working principles are explained.

Keywords: Islamic Finance, Islamic Banks, Murabaha, Takaful, Musharaka, Mudarabah, IsDB, ICD, ITFC, IRTI.

Islomiy banklar an'anaviy banklar singari mijozlardan omonatlar qabul qiladi va bu ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Islom foizlar hisoblash va olishni - riboni man etgani uchun islomiy banklar o'z mijozlariga islomiy me'yorlarga muvofiq keladigan bank xizmati ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Bank o'z xizmatlarini taklif etguniga qadar rahbariyat, eng avvalo, islomiy huquqning mutlaq va bosh manbalari Qur'on va hadislarga murojaat etishlari kerak.

Biznesga oid barcha tamoyil va taqiqlar, albatta, diqqat bilan zfganilishi lozim. Alloh taolo Qur'onning ko'plab oyatlarida poraxo'rlikni taqiqlagan va ishonch,adolat ila tarozi va o'lchovdan foydalanishga chaqirgan. Bundan tashqari Qur'onda tomonlar o'rtasidagi kelishuv yozma tartibda guvoxdar ishtirokida rasmiylashtirilishi, tomonlarning majburiyatları va kafolatlari

belgilangan bo‘lishi lozimligi aytib o‘tilgan. Hadislarda oldi-sotdn masalasida bir kancha yechimlar ko‘rsatib berilgan. Ba’zi hadislarda islomiy bitimlarning mana shunday, ya’ni salam (oldi-sotdi shartnomasi bo‘lib, tovarlar yetkazilish mudsati uzaytirilishi mumkin; tovarning qiymati oldindan to‘lanadi va taraflar kelishgan muddatda yetkazib beriladi), yollash, havola (veksel, tilxat), qarzlar, kreditlarni so‘ndirish, aktivlarni muzlatish, bankrotlik, sherikchilik, ijara, tadbirdorlikning shartlari va guvohnomasi tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Qur’onda moliyaviy faoliyatga doir bir kancha oyatlar va hadislар kelganiga qaramay, zamonaviy bank tizimida ta’kidlangap tamoyillarni ko‘llash murakkabdek tuyuladi.

Demak, islomiy olim va hukukshunoslar (islom konunchiligi sohasi ekspertlari) zimmalariga mas’uliyatni olgan holda shariat qoidalarini buzmaydigan va joriy bank qonunchiligiga muvofiq keladigan biznes yuritish tamoyillarini o‘rnatishlari kerak bo‘ladi.

Islomiy banklar xizmat ko‘rsatish usullari tarkibini tashkil etadigan islomiy tamoyillarni ifodalovchi turli atamalardan foydalanadilar. Ayrim islomiy banklarda arab atamalaridan, boshqalarida arab va ingliz tili aralashmasidan va yana birlarida bank faoliyati amalga oshirilgan mamlakatning mahalliy tilidan foydalaniyatganini ko‘rish mumkin. Sharia tamoyillari asosida islomiy bank ishi yuritayotgan mamlakatlar to‘g‘risida keyingi boblarda tanishib chiqamiz.

Qanday atamalardan foydalanishidan qat’i nazar, islomiy bank tizimidagi shariat tamoyillarini 5 toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifa foyda va zararlarni taqsimlash tamoyili, ikkinchisi oldi-sotdi tamoyili, uchinchi toifa o‘z ichiga yig‘im va komissiyalarni oladi. To‘rtinchi toifa bepul xizmat tamoyillarini, beshinchisi esa yordamchi tamoyillarni bayon etib beradi. Quyidagi tamoyillar aksariyat islomiy banklar tomonidan ko‘p holatlarda amaliyotda ishlatiladi: muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, ijara val-iqtino, muajjal bay, istisno, qarzi hasan, vadia, rahn. Sanab o‘tilganlardan tashqari islomiy moliyalarning boshqa tamoyillaridan ham amaliyotda foydalaniлади. Masalan, Malayziyada

dayn bay, ijara tumma bay, vakolat, havola, ujr va vadia yad damana tamoyillari tarqalgan.

Eronda ham bir talay qo'shimcha tamoyillar: joala, mozaraax, mosakat kabi tamoyillar kiritilgan. Bunday kup mikdordagi shariat tamoyillarining ishlatalishi ba'zi taxminlarga sabab bo'ladi va ushbular haqiqatdan ham shariatga asoslangan islomiy moliyalash vositalarimi yoki hiylalarmikan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Islom moliyasi O'zbekistonda. Albatta, islom banklari O'zbekistonga ham kirib kelishi va o'zining xizmatlarini bizning yurtimizda ham targ'ib qilinishi uchun bir qator strategik maqsadlarni qo'yish va shunga muvofiq tarzda muammolarni bartaraf etish lozim. Shuning uchun ham yurtimizda bank kredit tizimini yanada takomillashtirish vaasosan foizli kreditlarni kamaytirish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi parlamentga murojatnomasida "Islomiy Tijorat banklari" yurtimizda o'z faoliyatini boshlashini ta'kidlab o'tgan edilar va shu munosabat bilan O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini tashkil etish bo'yicha takliflar o'ranilmoqda. Yurtimizda Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilishiga qaramay shu paytgacha O'zbekistonda islom moliyasi sohasi deyarli rivojlanmagan.

Vaholanki bu soha rivojlanishiga mamlakatimiz juda kata salohiyatga ega va bu yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlari ekspertlari tomonidan ham tan olingan. Jumladan, Islom Taraqqiyot Banki(IsDB), Xususiy Tarmoqni Rivojlantirish(ICD), Xalqaro islom savdo moliya korporatsiyasi(ITFC), Islom tadqiqotlar va treninglar instituti(IRTI) islom moliyasini rivojlantirishda hozirgi kunga qaradar mamlakatimizga 2 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'larni yo'naltirganlar. Biznes vakillari tomonidan Islom moliyasiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida O'zbekiston 2003 yilda IsDB ga va 2004 yilda ICD ga a'zo bo'ldi va bu islom moliyasining O'zbekistonga kirib kelishiga zamin yaratdi. 2019 -yilda birinchi bo'lib islomiy sug'urta kompaniyasi faoliyatini boshladi, MDH davlatlarida birinchilardan bo'lgan elektron

Murobaha –savdo bitimi asosida moliyaviy mahsulot platformasi ishlab chiqildi. Mamlakatimiz yaqin qo'shnisi bo'lgan Tojikistonda tashkil etilgan Tavhidbanki bu yerdagi ilk islom moliyaviy banki hisoblanadi. Mazkur bank 1999-yil 24-avgustda "Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash aksiyadorlik tijorat banki" sifatida ta'sis etilgan bo'lib, 2002 yil 22-mayda "Sohibkorbank" nomi bilan qayta tashkil etilgan. Bank tashkil topgan kundan boshlab mamlakat moliya xizmatlari bozorining faol, ishonchli va barqaror ishtirokchisi sifatida tanilgan. 2019 yil 1-iyuldan bank nomi "Tavhidbank"ga o'zgartirildi va 2019 yil 16-sentyabrdan boshlab Tojikistondagi birinchi Islom banki sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bankning sof foydasi 4,3 million so'mni tashkil etdi. Moliyaviy portfelning sof daromadi o'tgan yilga nisbatan 370 foizga o'sdi. Komissiya daromadi, asosan, hisob-kitob operatsiyalari va kafolatlar hisobiga 20 foizga o'sdi. 2021-yil 30-noyabr holatiga ko'ra, kapital o'tgan yilga nisbatan 21 foizga ko'payib, 110 million so'mni tashkil qildi. Bank aktivlari 32 foizga o'sgan holda 181 million so'mni tashkil etdi. Bankning moliyalashtirish portfeli 155 foizga oshib, 23 million so'mni tashkil etdi. Mening fikrimcha, O'zbekistondagi xalqaro islom tashkilotlari, ta'lim muassasalari, islom bank moliya muaassasa va tashkilotlari o'zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini o'rgangan holda, moliya bozori ishtirokchilari orasida keng targ'ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini tushunib yetishi darajasini oshirish zarur. Islom bankchiligini tashkil etish orqali, ko'pchilik qismi musulmon bo'lgan davlatlarda, samarali faoliyat yuritish va davlat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatish mumkin. O'zbekistonda islom moliyasini tashkil qilish bo'yicha uchun quyidagilar yechim bo'lishi mumkin:

- Avvalo mamlakatimizda markaziy islom bankini tashkil etish;
- Mukammal bo'lgan huquqiy va siyosiy bazani yaratish;
- Islom banklarida shariy kengashlarni va turli xalqaro muvofiqlashtiruvchi markazlar tashkil qilish;

-Islom bank moliya tizimini joriy etgan va islom moliyasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratgan mamlakatlarning muvofiqlashtiruvchi tashkilotlari bilan keng ko‘lamli sherikchilik aloqalarini bog‘lash. Albatta ishonamizki, islomiy bankning tizimini mamlakatimizga kirib kelishi natijasida O‘zbekiston MDH davlatlari o‘rtasida yetakchilik qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytsak, islomiy bankning xizmatlar sohasi yurtimizning porloq kelajagi uchun muhim shart sharoitlar yaratib, poydevor va yanda rivojlanish istiqboli bo‘ladi. Hamda mana shu ishlarning natijasida, O‘zbekiston madaniyatida islomning chuqur ildizlari aks etgan mamlakat hisoblanib o‘z jozibadorliligi bilan xorijiy investorlarni yanda ko‘proq jalb qila oladi. Bu imkoniyat orqali davlatimiz aholi farovon hayoti barqaror rivojlanishiga katta qadamlarni qo‘ya oladi desak adashmaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Беккин Р.И. Исламские финансовые институты и инструменты в мусульманских и немусульманских странах: особенности и перспективы развития. / Автореф. дисс. докт. экон. наук., 2009. – 48 с.
2. Исхаков И.Р. Операционная структура исламского финансового института, ориентированная на реализацию долевых методов // Актуальные проблемы экономики и права. – 2014. – № 2(30). – с. 12-16. 4. Кузнецова Т. Исламский банкинг: особенности кредитования инвестиционных проектов // Финансовая жизнь. – 2015. – № 2. – с. 22-25.
3. Bekmurodov, A. A. “Kichik biznes sub‘ektlarini tijorat banklar tomonidan kreditlashda xorij tajribasi” Теория и практика современной науки 6 (96) (2023): 20-24.
4. Bekmurodov A. The impact of transformation processes on the activities of commercial banks //Archive of Conferences. – 2021. – C. 52-54.

O'zbekistonda ipoteka kreditini rivojlantirishning ijtimoiyqatlamni himoyasidagi istiqbollari va tendensiyalari

Bekmurodov Abbas Amiriddinovich

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti

"Bank ishi" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilayotgan ipoteka kreditlari va ularning davlat tomonidan ko'llab-kuvvatlanishni yanada takomillashtirish imkoniyatlari o'rganib chiqilgan. Bunda ipoteka kreditlarini ajratish faoliyatining samaradorligi tahlil qilinib mazkur ortirilgan tajribalarni keng qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ipoteka, subsidiya, qayta moliyalashtirish stavkasi, ko'chmas mulk, birlamchi bozor, ikkilamchi bozor, bank, moliya.

Abstract: In this article, the mortgage loans provided by the commercial banks of our country and the possibilities of further improvement of their state support are studied. In this, the effectiveness of the activity of allocation of mortgage loans was analyzed and suggestions and recommendations were made for the wide application of the experiences gained.

Keywords: mortgage, subsidy, refinancing rate, real estate, primary market, secondary market, banking, finance.

Davlat o'z aholisining birlamchi ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy islohotchi bo'lishi yani shart-sharoitlar yaratishi, moddiy tomonidan qo'llab quvvatlashi o'z navbatida aholining jamiyat rivojiga davlatimiz kutgan natijalar berishi bugungi kunda xech bir davlat boshqaruviga sir emas. Bu borada mamlakatimiz ham aholini uy-joy bilan ta'minlash borasida o'ziga xos tartib va ta'moyillar asosida ipoteka kreditlarini ajratib kelmoqda.

Ipoteka bozorida aholining oshib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantiruvchi tegishli bank va nobank mahsulotlar turini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali shahar va qishloq joylarida ipotekani kreditlashni rivojlantirish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar ijobiy natija bermoqda.


Birgina o'tgan hisobot yili davomida Markaziy bank tijorat banklari tomonidan aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim qildi. Unga ko'ra, yil davomida banklar tomonidan 68 395 ta fuqaroga jami 16 trln 850,9 mldr so'm ipoteka kreditlari ajratilgan. Ajratilgan ipoteka kreditlari miqdoriy jihatdan o'tgan yilga nisbatan 2 trln 479,7 mldr so'mga yoki 17,2 foizga ko'proq bo'lsa-da, kredit oluvchilar soni kamaygan - 2022 yilda 70 913 nafar, 2023 yilda esa 68 395 nafar (- 2518 nafar). 2022 yilda bitta ipoteka kreditining o'rtacha miqdori 202,7 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 246,4 mln so'mni tashkil qilgan.

2023 yilda banklar o'z mablag'lari hisobidan 5 trln 717,3 mldr (2022 yilga nisbatan 1 trln 931,2 mldr so'mga ko'proq) kredit ajratgan. Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi resurslari hisobiga 2022 yilda bor yo'g'i 167 mldr so'm ipoteka kreditlari ajratilgan bo'lsa, 2023 yilda kompaniya mablag'laridan 1 trln 576,3 mldr so'm ipoteka kreditlari moliyalashtirilgan. Moliya vazirligi resurslari hisobidan ajratilgan kreditlar esa, aksincha, kamaygan - 2022 yilda 10 trln 418,1 mldr so'mdan 2023 yilda 9 trln 557,3 mldr so'mga tushgan.

2022 yilda ajratilgan ipoteka kreditlarining 75 foizi birlamchi, 25 foizi esa ikkilamchi bozordagi uy-joylarga ajratilgan bo'lsa, 2023 yilda ikkilamchi bozor uchun kreditlar ajratish ancha "faollashgan". Xususan, 2023 yil ipoteka kreditlarining 59 foizi (9,8 trln so'm) birlamchi bozordagi uylarga, 41 foizi (7,1 trln so'm) ikkilamchi bozordagi uylarga ajratilgan.

Ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha hududlar kesimida Toshkent shahri yetakchilik qilishda davom etmoqda - 5 trln 900 mln so'm (jami ajratilgan ipoteka kreditlarining 29,6 foizi). Bundan tashqari, Farg'ona viloyati (1,3 trln so'm), Navoiy viloyati (1,25 trln so'm) hamda Toshkent viloyati (1,23 trln so'm)da nisbatan ko'proq ipoteka kreditlari ajratilgan. Sirdaryo viloyatida eng kam ipoteka krediti ajratilgan – 380 mldr so'm.

Ajratilgan kreditlar aholining hududlar bo'yicha soni va ehtiyojini hisobga olsak har bir hududda davlat tomonidan qaratilayotgan e'tibor diyarli bir biriga yaqin ekanligini bilish qiyin emas.



1 rasm mamlakatimizda 2018-2024 yillar davomida ipoteka bozori holatining infografikasi

Infografika ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari qoldig'I 2018 yilga nisbatan 6 barobarga ko'payib 58,2 trln so'mni tashkil etgan. Birgina 2023 yilning o'zida 68395 ta fuqaroga 16850,9 mlrd so'm ajtatilgan. Ajratilgan kreditlarning manbalari Moliya vazirligi, O'zbekiston ipotekasini qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hamda Bankning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan.

Aholiga ipoteka kreditlari bo'yicha yanada kulay shart sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtlash talabi bekor qilish yoki mijozning ixtiyoriga qoldirish.

- Kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turar joyi nochor ahvoldagi oilalarga, “mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida, o‘z hovlisida uy qurish va ta’mirlashga ipoteka krediti ajratish yo‘lga qo‘yish.
- kreditning boshlang’ich to’lovining bir qismini masalan (10-15 foizi) va dastlabki besh yilda foiz stavkasining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqib 5-7 foizgacha bandi byudjetdan qoplab berilishini talinlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag‘i «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-5992-son farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>
3. Review.uz O‘zbekistonda ipoteka bozori rivojlanishining asosiy to’siqlari
4. Lex.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo“shimcha chora-tadbirlar to“g“risida” farmoni
5. Мадаминов, Муроджон Сайдалиевич. "Банкларда кредит маҳсулотлари яратишида маҳсулотли ёндашувнинг аҳамияти." Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 4.3 (2024): 228-231.
6. Shuhratjon o‘g‘li, Komilov Bobirjon. "Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishda fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari." образование наука и инновационные идеи в мире 39.2 (2024): 185-189.
7. Amriddinovich, Bekmurodov Abbos. "Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks." World Economics and Finance Bulletin 7 (2022): 27-31.
8. <https://daryo.uz/2024/03/12/turar-joyi-nochor-ahvoldagi-oilalarga-oz-hovlisida-uy-qurish-va-tamirlashga-120-mln-somgacha-ipoteka-krediti-ajratiladi>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/01/loans/>